

3-dars

Darsning mavzusi: Unli tovushlar va harflar (12 – 17-mashqlar)

Darsning ta'limiy maqsadi: tovushlar, ularning so'z ma'nolarini farqlashi, to'g'ri tallafuzi, belgilari, tovushlarning harflar bilan yozilishi, harflarning belgilari, grafik jihatdan to'g'ri shakllantirish haqidagi bilimlarini eslatish orqali mustahkamlash; unli va undosh tovushlar tallaffuzi va imlosi, so'zlarni bo'g'inga ajratish va ko'chirishni, so'zlarni bo'g'in-tovush va tovush-harf jihotdan tahlil qilishni bilish: talaffuz me'yorlariga va bo'g'in ko'chirish qoidasiga riosa qila olish.

Darsning tarbiyaviy maqsadi: o o'quvchilarni do'stlik ruhida tarbiyalash; o'zidan kattalarga, o'rtoqlariga va o'ziga kichiklarga yordam berish; tabiatni asrab-avaylashga, shaxsiy gigiyena qoidalariiga riosa qilishga o'rgatish.

Darsning rivojlantiruvchi maqsadi: o'quvchilardagi bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish; ona tilidagi nutq tovushlarini farqlay olish, mavzuga oid yangi so'zlarni og'zaki va yozma nutqda qo'llay olish

Darsning turi: o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini rivojlantiruvchi dars.

Darsning metodi: suhbat, mustaqil ish metodi, "Diqqat bolalar!" ta'limiy o'yini.

Darsning jahozi: mavzuga oid rasmlar, so'zlar yozilgan tarqatmalar, texnika vositalari.

Darsning borishi

I. Tashkiliy qism.

- salomlashish;
- davomat;
- ma'naviyat daqiqasi.

II. O'tilgan mavzularni mustahkamlash.

Uyga berilgan vazifa tekshiriladi. Savollar berilib o'tilgan dars mustahkamlanadi.

Husnixat daqiqasi:

Kichik "u" harfini yozish uchun ikki chiziq o'rtasidan pastga qarab kichik tayoqcha tushiriladi va uni pastki chiziqqa yetkazmay turib, o'ngga buriladi

va yuqoriga qarab davom ettiriladi. Bu harf unsurlarini ikki marta qo'shib yozilsa, kichik "u" harfi hosil b o'ladi.

Daftarga bir qator kichik "u" harfini va shu harf bilan bog'langan so'zlarni yozadilar: *ulug'*, *umid*, *ustoz*, *uzum*, *ulkan*, *ukki*, *un*, *uchun*.

IV. Yangi mavzu bayoni.

12-mashq ustida og'zaki ishlanadi. Matn o'qilib, savollarga javob beriladi.

1. Tovushlar qanday vazifani bajaradi? (*Tovushlardan harflar, so'zlar hosil qilinadi.*)
2. Qaysi tovushlarsiz so'z hosil bo'lmaydi? (*Unli tovushlarsiz so'z hosil bo'lmaydi.*)
3. Unli tovushlar qanday talaffuz qilinadi? (*Unli tovushlar talaffuz qilinganda havo to'siqqa uchramaydi.*)

13-mashq "Diqqat bolalar!" ta'limiy o'yini orqali yozma bajariladi. Bunda matn o'quvchilar bilan birga o'qilib, unga mos sarlavha topiladi.

Matnda ajratib ko'rsatilgan *tezuchar*, *podshoh*, *qo'yibdi*, *kabutar*, *juda*, *gardishi*, *bechora*, *osmonga*, *so'ng*, *qarasa*, *vayron*, *qattiq*, *buzilib* so'zlarining talaffuzi va imlosidagi farq va xatoliklar haqida suhbatlashiladi.

14-mashqni yozma bajarish talab qilinadi. Tushirib qoldirilgan harflar o'z o'rniga qo'yilib, guruhlarga ajratiladi.

- *Navkar*, *navo*, *shavla*, *gavda*, *qalpoq*, *karam*, *qassob*, *havo*, *Kamol*, *lavozim*, *ravshan*, *qavs*, *gavjum*, *vahm*.
- *Tomosha*, *kompot*, *qoloq*, *Komil*, *karavot*

IV. Yangi mavzuni mustahkamlash.

Darsni mustahkamlash uchun **16-mashqda** berilgan testlarning javobi topiladi.

1. Qaysi qatorda aytilishi va yoziishi mos kelmaydigan s o'zlar berilgan?
To'g'ri javobi: A) Okean, afg'on

2. Tinchlik so'zida nechta tovush bor? Ularning nechtasi unli va undosh tovushlar?

To'g'ri javobi: E) 7 ta tovush, 2 ta unli, 2 ta undosh

3. Unli harflar qatorini toping.

To'g'ri javobi: D) o', o, i, e, u, a

4. i unlisi to'g'ri qo'llangan so'zlar qatorini toping.

To'g'ri javobi: D) olis, oydin, topishmoq

Dam olish daqiqasi.

*Yer katta, bizlar kichik,
Ammo bizlar ko'pchilik.
Maqsadimiz yagona,
Dunyoda bo'lsin tinchlik.*

17-mashqda berilgan jadval to'ldiriladi.

A	O	E	I	O'	U
Anhor	Olmaxon	Eldor	Ilon	O'rim	Ukki
Albatta	Olcha	E'lon	Ikki	O'yin	Uzum
atlas	Olam	Elak	Iz	O'lka	Ulkan
			Ijozat		Umid

Berilgan so'zlar ishtirokida gap tuzish topshirig'i beriladi.

V. Darsga yakun yasash va baholash.

Dars yakunida o'quvchilar joriy darsda o'zlari egallagan bilimlari va darsdan chiqargan xulosalarini bayon etishadi. So'ngra dars davomida faol qatnashgan o'quvchilar rag'batlantiriladi.

VI. Uyga vazifa berish.

18-mashq sharti tushuntirib beriladi va uni uyda bajarib kelish kerakligi ta'kidlanadi.